

“PEDAGOGIK KOMPETENSIYA” VA UNI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022>.

Yusupova Feruza Mahkamovna

Toshkent viloyati Chirchik davlat pedagogika instituti “Fakultetlararo rus tili”
kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari va xususiyatlari mahalliy va xorijiy mutaxassislar xulosalari asosida yoritilgan bo‘lib, pedagogik kompetensiyaning tarkibi, o‘qitishning kognitiv o‘lchovi va uning ijobiy emotsional tuzilmasi taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlilik, pedagogik kompetensiya, pedagog, kognitiv o‘lchov, tashkilotchilik, javobgarlik, umumiy pedagogik mahorat, maxsus pedagogik mahorat

“ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ” И ЕЕ ФОРМИРОВАНИЕ УБУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Юсупова Феруза Махкамовна,

Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области, преподаватель
кафедры “Межфакультетского русского языка”

Аннотация. В данной статье описаны компоненты и особенности педагогической компетентности на основе выводов отечественных и зарубежных специалистов, представлена структура педагогической компетентности, когнитивное измерение обучения и его позитивно-эмоциональная структура.

Ключевые слова: компетентность, педагогическая компетентность, педагог, познавательная мера, организованность, ответственность, общепедагогические умения, специальные педагогические умения.

PEDAGOGICAL COMPETENCE AND ITS FORMATION IN FUTURE TEACHERS

Yusupova Feruza Mahkamovna,

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region Teacher of the department of “Interfaculty Russian language”

Abstract: This article describes the components and features of pedagogical competence on the basis of the conclusions of local and foreign experts, presents the structure of pedagogical competence, the cognitive dimension of teaching and its positive emotional structure.


Keywords: competence, pedagogical competence, teacher, cognitive measurement, organization, responsibility, general pedagogical skills, special pedagogical skills

Kirish. Jahon fani va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Jahonda kadrlarning, xususan, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta’minlash zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida o‘qituvchilarni tayyorlashda sodir bo‘layotgan keskin islohotlar ushbu muammo ahamiyatini tobora oshishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nemis tilli manbalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘z faoliyatini olib boradigan bo‘lajak o‘qituvchilarda “pedagogik kompetensiya”ni shakllantirish pedagogik oliy ta’lim muassasalarining eng dolzarb

vazifalaridan sanaladi (1-rasm). Kompetensiya bu – amaliyotning o‘ziga xos maqsadlari vaqo‘llaniladigan qonuniy vositalarning ijtimoiy tan olinishini ifodalovchi e’tirof natijasidir. “Pedagogik kompetensiya” tushunchasi esa uch xil o‘zaro farqlanuvchi o‘lchov me’zon (qiymat)lardan iborat: bilim (fanga oid), xohish (axloqiy-motivatsion), harakat (amaliy-protsessual). Shuning uchun professional mahoratga erishish uchun nafaqat nazariy bilim, balki doimiy takrorlash natijasida shakllanadigan ko‘nikmalar, ya’ni amaliy faoliyat (harakat) muhim sanaladi. Natijalar va muhokama. Endigina o‘qishni bitirib maktabda o‘z pedagogik faoliyatini boshlayotgan o‘qituvchi qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Muayyan sinf o‘quvchilar nafaqat xulq-atvori, bilimi, qiziqishlari bilan, balki ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy muhiti, dini, madaniyati va shu kabi boshqa bir qator faktorlari bilan bir-bridan ajralib

turadi. Bunday sinfva har bir o'ziga xos o'quvchi bilan to'g'ri munosabatda bo'lish uchun o'qituvchidan qanday kompetensiyalar talab etiladi? Sohaga oid adabiyotlarda yozilishicha, o'qituvchi tashkilotchilikkompetensiyasiga ega bo'lishi kerak. Kundalik maktab hayoti tuzib chiqilishi, vaqt va joy rejalariniishlab chiqilishi lozim. O'quvchilar uchun qulay bo'lgan, ular o'zlarini "o'z uylaridagidek" hisetishlari uchun muhit yaratilishi kutiladi. Agar ular birinchi sinfga kelishgan bo'lsa, dastavval, maktab kun tartibi iloji boricha muammosiz o'tishiga imkon beradigan qoidalar o'quvchilargatanishtirilishi kerak. Ayniqsa, birinchi sinf boshida barcha o'quvchilar moslashib olishlari, erkinharakat qilishlari uchun qulay muhit yaratish muhimdir. Bunda o'qituvchi shaxsi muhim rolo'ynaydi. O'qituvchining sezgirligi va o'z-o'ziga "baho berishi", ya'ni o'z-o'ziga javobgarlikkompetensiyasi dars jarayoniga o'z shaxsiyatini jalb qilishi va kuchli tomonlaridan samaralifoydalanishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar bilan yaqin munosabatlarda yuzagachiqadigan hissiy stresslar tartibga solinishi kerak. Barcha o'quvchilar bilan barqaror va ijobiymunosabatlar o'rnatish uchun o'qituvchi umumiy pedagogik harakatlanish kompetensiyasini egallashi talab etiladi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchiga pedagogik faoliyatda sezgirlik, shuningdek, muloqot qilish, o'zaro munosabatga kirishish, hamkorlik qilish va aloqalarnio'rnatish qobiliyati kerak bo'ladi. Maxsus pedagogik harakatlanish kompetensiyalari unga ijobiy dars jarayoni, muhitini yaratishga imkon beradi. Buardan tashqari, didaktik va metodikko'nikmalar orqali o'qituvchi faktik va funksional munosabatlar kontekstida o'z kasbiy kompetensiyasi samarali amalga oshirishi mumkin.



1-rasm. Pedagogik kompetensiya tarkibi

Pedagogik kompetensiyalarni yuqoridagi kabi ta'riflash nisbiy bo'lib, ularni ta'lim olish jarayonida nazariy jihatdan qisman o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Pedagogik faoliyat davomida ular amaliy jihatdan boyitiladi. Shu tarzda tajribali o'qituvchi egallagan pedagogik kompetensiyalarni vaziyatga mos tarzda amaliy qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu sababli har bir kompetensiyani alohida sanab o'tish maqsadga muvofiq sanalmaydi. Pedagogik kompetensiyalar o'qituvchi faoliyati jarayonida alohida-alohida emas, balki bir-biriga bog'liq tarzda boyib boradi.

O'qituvchi mahorati faqat alohida kompetensiya tarkibiy qismlaridan iborat emas, balki u (qismlar) butunligi, jamlanmasidir. Shunga tayanib aytish mumkinki, muayyan vaziyatlar va ehtimoliy muammolarga qarab turli tarzda ijodiy yondashuv talab etiladi. Insonlar har xil bo'lgan kabi ular o'z maqsadlariga ham turli yo'llar orqali erishishadi. O'qituvchining kompetentligi muayyan vaziyatlar kontekstida baholanadi. Alohida elementlar mutloq xulosachiqarishga asos bo'la olmaydi. Bu mahoratli o'qituvchi siymosida namoyon bo'ladi.

Kasbiy mutaxassis, ya'ni mahoratli o'qituvchi tushunchasi odatda sohaviy adabiyotlarda ikki xil ma'noda beriladi. Ba'zi tadqiqotlarda bu tajribali, muvaffaqiyatli mutaxassislar va endi o'z kasbini boshlaganlar (professional aspekt) o'rtasidagi farqni ko'rsatish uchun ishlatilsa, boshqalarida asosiy e'tibor yuqori samaradorlikka olib keladigan ajoyib, maxsus ko'nikma va bilimlarga qaratiladi (kasbiy faoliyat doirasida).

O'z kasbining mutaxassisi bo'lish uchun katta tayyorgarlik va amaliy tajribadan so'ng o'z kasbi talablarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun ko'nikma va bilimlar mutaxassislar uchun kompetentlikning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu ma'noda o'qituvchilik kasbi dars jarayoni bilan bog'lanadi va ushbu jarayonda o'qituvchi mahorati namoyon bo'ladi:

1. Tarkibiy, kichik maqsadlar va muammoga yechim topish bosqichlari, shuningdek, maqsad va vosita o'rtasidagi munosabat avvaldan to'liq aniqlanmagan bo'ladi (ya'ni mexanizatsiyalashgan faoliyat yo'q).
2. Mutaxassislar qisman oldindan ko'ra oladigan, lekin nazorat qila olmaydigan ta'sir yetuvchi omillar tufayli talab etiluvchi vaziyat doimiy o'zgarib turadi (atrof-muhit sharoitlarigayuqori darajada bog'liq).
3. Ish jarayoni dinamik, ya'ni yangi ma'lumotlar doimiy ravishda baholanadi va birlashtiriladi (o'zgaruvchan

ish jarayoni va talablar).

Faoliyat jarayonida uchraydigan qiyinchilik, muammo va murakkabliklarni yengish bilan bir qatorda, malaka va tajribani me'yoriy ravishda belgilaydigan muvaffaqiyatli harakat mezonini ham mavjud. Pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyat, albatta, o'ziga xosdir. Normativ mezonlar bahsli hisoblanadi, ammo muvaffaqiyatli ta'lim jarayonining ba'zi pragmatik xususiyatlari keng sub'ektlararo e'tirofqa ega bo'lishi mumkin. Pedagogik harakatni baholash faqat o'qish va o'qitishning kognitiv o'lchoviga bog'liq emas, balki o'quv jarayonining quyidagi ijobiy emotsional tuzilmasini ham hisobga olishi kerak:

- darsning maqsadga muvofiq tuzilganligi va aniqligi;
- sinf boshqaruvining samaradorligi;
- o'quvchilar harakatini qo'llab-quvvatlovchi vazifa/topshiriqlar ustuvorligi;
- o'quvchilarga individual yondashuv;
- dars jarayonining turli-tumanligi;
- talabchan o'quv jarayoni;
- o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi sog'lom munosabat;
- o'quvchilarning bilim olish, o'zlashtirish samaradorligi.

Pedagogik soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalaridan ayon bo'ladiki, mahoratli o'qituvchilar o'zlari o'zlashtirgan didaktik modellarni o'z mashg'ulotlarida aynan yozilganidek (ya'ni o'rganganidek) qo'llamaydilar, balki o'z strategiyalarini ishlabchiqadilar.

Mavzu, mashq namunalarini tanlash, yod olinadigan, o'rganiladigan yangi so'zlar va boshqalar oldindan aniq rejalashtiriladi/ishlab chiqiladi, ammo dars jarayoni kutilganidan farq qilishi tayin, ya'ni u xuddi rejadagidek bo'lmashligi mumkin, u taxminiydir. Faqat muayyan dars jarayonidagina taxminiy g'oya/loyiha/reja haqiqatga aylanadi. Aynan tajribali (mahoratli) o'qituvchi dars maqsadlari va unga mos metod/o'yin yoki boshqa uslubiy bosqichlarni ishlab chiqadi va kerakli jihozlarni oldindan tayyorlaydi. Biroq, u bu resurslarni sinfning hozirgi holati (bilim, qiziqish, motivatsiya, muammolar va boshqalar)ga qarab, unga moslab foydalanadi.

Qadam-baqadam, aniq tayyorgarlikning o'zi dars muvaffaqiyatini ta'minlay olmasligi mumkin, bu dars jarayoni uchun foydadan ko'ra ko'proq to'siq bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilarning improvizatsiyasi ularning dangasaligidan dalolat bermaydi, balki bu kutilmagan vaziyatlarda moslashuvchanlik va ijodiy hal qilishga imkon beruvchi asosiy malaka sanaladi. Dars uchun tajribali o'qituvchilar tomonidan tuzilgan taxminiy harakatlar rejasi dars jarayonini qamrab oluvchi kalit so'zlardan iborat bo'ladi. Bunday harakatlanish sxemalarini xronologik va faktik jihatdan murakkab, maxsus mavzuni yetkazish uchun tuzilgan modullari deb qarash mumkin. Ushbu modullar o'quvchilarning ehtiyojlari va dars jarayoniga mos qo'llaniladi. Shunday qilib, mahoratli o'qituvchi darslarni barqaror-moslashuvchan tarzda olib boradi. O'qituvchining repertuari qanchalik keng va tabaqalashtirilgan bo'lsa, uning improvizatsiyasi shunchalik maqsadga muvofiq/mos bo'ladi. Masalan, agar tajribali o'qituvchi mavzuda noaniqlik borligini sezsa va u bu nuqtani shu qadar muhim deb hisoblasa, uni darhol hal qilishni xohlasa, u bunga erishish uchun biror maqsadga muvofiq harakat modulini qo'llaydi. Yosh o'qituvchilar o'z qarashlariga boshqacha baho beradilar va rejalashtirilmagan vaziyatlarlarga spontan va adekvatmunosabat bildirishga qodir bo'lishmaydi.

Xulosa.

Dars rejasi va dars o'tish jarayonining mukammalligi va o'zaro ichki uyg'unligi. Kompetentli o'qituvchilarning didaktika va metodologiya mazmuniga oid qarashlari yosh, tajribasizlarga qaraganda ko'proq maqsadga yo'nalgan bo'ladi. Mahoratli o'qituvchi dars materiali va talabaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarni birlashtirishga va izchil mantiqqa rioya qilishga qodir bo'ladilar.

Maqsad va vaziyatga muvofiq harakatlanish rejasi. Harakatlanish rejalari tegishli harakatlar ketma-ketligini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi. O'quvchilar o'qituvchining har bir harakatiga munosabat bildiradilar va aksincha, bu maqsad va kichik maqsadchalarga erishish uchun qayta-qayta yangi ta'limiy vaziyatlarni yaratadi. Mahoratli o'qituvchilar dars jarayonining bunday dinamik tabiati bilan nafaqat reaktiv, balki samarali kurasha oladilar.

Dars maqsadlariga mutanosib va izchil yondashuv. Yangi ishni boshlagan o'qituvchilar tajriba va mahoratli mutaxassislar ham qo'llaydigan ko'plab uslubiy elementlarni bilishadi, lekin ularni yuqori darajada o'zlashtirishmaydi va ularni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sabablarni har doim ham metodlar maqsadga muvofiq va mutanosib qo'llanilmaydi. Muvaffaqiyatsiz natijalardan bunday metodlardan voz kechishga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Terhart E. Pädagogisches Wissen // Zeitschrift für Pädagogik.– Weinheim: Beltz. 1991.

–S. 134.

2. Bromme R. Das Denken von Lehrern bei der Unterrichtsvorbereitung. Eine empirische Untersuchung zu

kognitiven Prozessen von Mathematik lehren. –Weinheim: Beltz. 1981.

3. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования. –Т., 1997. –46 б.

4. Абдуллаева Ш.Х. Педагог профессионал компетентлигини шакллантиришнинг ижтимоий психологик механизмлари // псих. фан. бўй. фан доктори (DSc) дисс. –Т.: 2019, 216 б.

5. Джураев Р.Х. Теория и практика интенсификации профессиональной подготовки учащихся профтехучилищ. –Т.: Фан, 1992. –259 с.

6. Морозов С. Профессиональная школа сегодня и завтра // Народное образование, 1994, №5,- с.52-57.

7. Очилов М. Муаллим қалб меъмори: Сайланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 2000. –432 б.

8. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий-маданий муносабатларнинг шаклланиши: Пед. фан. ном. дис. автореферати. – Тошкент: 2002. – 22 б.

9. Саидахмедов Н.С., Абдувоҳидов С. Касб таълим ўқитувчисининг педагогик фаолияти модели. –Т.: “Фан ва технология”, 2014, 128 б.